

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844570>

FRAZEOLOGIK MUAMMOLAR BILAN BOG‘LIQ BA‘ZI DOLZARB MUAMMOLAR XUSUSIDA

Ishqurbanova Mahfuza Hamro qizi

Termiz davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi II bosqich
magistranti

E-mail: Ishqurbanovam@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada frazeologizmlar bilan bog‘liq hanuzgacha bahsli bo‘lib kelayotgan ikki muammo: frazeologik birliklar tarkibiga nimalar kirishi va iboralar va idiomalarning o‘zaro farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Frazeologik butunlik, tilshunoslik, paremiologiya, ibora, idioma.*

ABSTRACT

This article explores two still controversial issues related to phraseologisms: what constitutes phraseological units and the differences between phrases and idioms.

Key words: *Phraseological integrity, linguistics, paremiology, phrase, idiom.*

KIRISH

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi ko‘pgina imkoniyatlar eshigini ochdi, xalqimizning turmush tarzi, milliy-madaniy hayotiga ulkan ijobiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Istiqloq sharofati bilan unutilgan milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning hayoti darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga chiqarish uchun keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda soʻzning leksik, grammatik, semantik jihatlari keng oʻrganilgan boʻlsada frazeologiya sohasida bunday deya olmaymiz. Frazeologik birliklarni tilning uzviy ajralmas qismi sifatida koʻrib chiqish, frazeologiyaning umumiy va oʻziga xos tomonlarini, semantik va leksikografik xususiyatlarini mukammal oʻrganib chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologizmlar haqida fikr yuritilgan ekan, avvalo, uning lugʻaviy maʼnosiga eʼtibor qaratsak. Frazeologiya yunoncha soʻz boʻlib, "phrasis"-ibora, "logos"-taʼlimot, yaʼni "iboralar haqidagi taʼlimot" degan maʼnoni anglatadi. Rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologizmlarning oʻrganilishi yuzasidan oʻz fikrlarini bayon qilgan ekan, shunday eydi: "Frazeologiya termini dunyo tilshunosligida 1558-yil ingliz adabiyotshunosi Neandr tomonidan ilk marta qoʻllangan". Yana bir boshqa manbada keltirilishicha bu atama ilk bor 1928-yilda E.D. Polivanov tomonidan qoʻllanilgan deyiladi: "Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada boʻlsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni "frazeologiya" degan termini qoʻllashni lozim topdim"¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oʻzbek tilshunosligida frazeologik birliklarning grammatik, semantik, leksik, uslubiy tadqiqiga bagʻishlab bir qancha ilmiy ishlar qilingan boʻlsada, baʼzi bir muammolar oʻz yechimini topmay kelmoqda. Masalan, frazeologizmlarning semantik-struktur shakllanishi, etimologiyasi, tarixiy taraqqiyoti, maʼlum vaqt oʻtgandan keyin oʻzgarishga uchragan frazemalar, frazeologizmlarning lugʻatlarda qay tartibda berilganligi, bir soʻz doirasida qoʻllaniluvchi iboralar va boshqa shu kabi masalalar tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, tilshunoslikda shunday bir muammo borki, bu -frazeologik birliklar tarkibiga nimalar kirishi haqidagi qarashlarning turlicha ekanligidir. Tilshunoslikda barqaror birikmalar paremiologiya boʻlimida oʻrganiladi, yaʼni bu boʻlimda tildagi turli xarakterga ega barcha iboralar tadqiq etiladi.

¹ Umarxoʻjaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi.- Andijon: ADTPI, 2010.-150b.

Frazeologiyada esa faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalar o'rganiladi. Lekin ko'pgina tilshunos olimlar frazeologizmlarni keng ma'noda tushunib, ularga iboralar bilan birga undov xarakteridagi umringdan baraka top, qutlug' bo'lsin, otangga rahmat, go'ringda to'ng'iz qopgur, diydoring qursin; kirish iboralar: gapning qisqasi, baxtga qarshi, xulosa shuki, xulosa qilib aytganda, qisqa qilib aytganda; maqol tipidagi frazeologizmlar o'zingni er bilsang, o'zgani she'r bil, teng tengi bilan, tezak qopi bilan; matal tipidagi olmoqning bermog'i bor, kemaga tushganining joni bir; hikmatli frazeologizmlar odami ersang demagil odami, anikim yo'q xalq g'amidan g'ami kabi birikmalarni kiritishadi¹, bunga ularning tuzilishi jihatidan ikki va undan ortiq so'zlardan iboratligi, nutqqa tayyor holda kiritilishi, tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirib bo'lmasligi, obrazlilik mavjud ekanligi kabi sabablar misol bo'ladi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning fikricha frazeologik butunlik tarkibiga texnik va ilmiy birikma terminlar, qanotli so'z va birikmalar, kalamburlar, maqol va matallar ham kiradi. O'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarni keng va tor ma'noda tushunish bor. Ayrim mualliflar aviatsiya sanoati, botanika bog'i, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, arifmetik jadval, fan kandidati kabi ayrim tarkibli terminlarni ham frazeologizmlar tarkibida o'rganib kelishmoqda.²Xususan, taniqli olim, adabiyotshunos G'.Salomov o'zining "Til va tarjima" asarida iboralar, maqol va matallar, hikmatli so'zlar va aforizmlarni tadqiq qilgan ekan, quyidagi fikrlarni bayon qilgan:"Biz "frazeologiya" deganda maqol, matal, idiomalar, qochiriq, obrazli hamda ko'chma ma'noli so'zlar va boshqa turg'un birikmalarni nazarda tutdik ya'ni bu termini keng ma'noda ishlatdik"³. To'g'ri, frazeologizmlarni keng ma'noda o'rganish ularni yaxshiroq tushunish imkonini beradi, lekin bizningcha yuqoridagilarning barchasini frazeologik birliklar deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki frazeologizmlarning asosiy xususiyatlariga ikki va undan ortiq so'zlardan iboratligi, nutqqa tayyor holda kiritilishi, imotsional-ekspressivlikni ta'minlashi kabi belgilar bilan birga ibora tarkibiga kiruvchi

¹ Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар (биринчи қисм). Самарқанд, 1976,12-13-бетлар

² Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. 24- бет.

³ Тил ва таржима.- Узбекистан ССР ФАН нашриёти.- Тошкент,1966.264-бет

soʻzlarning yaxlit holda bir maʼnoni ifodalashi va koʻchimning mavjudligi ularning boshqa barqaror birikmalardan ajratib turuvchi asosiy belgilar hisoblanadi.

A.Mamatov ham oʻz monografiyasida bu haqida toʻxtalib quyidagi fikrlarni bayon qilgan, frazeologik birlik boʻlish uchun soʻzlarning turgʻun birlashmasi obrazli maʼno, koʻchma maʼno anglatishi shart. Shuning uchun ham frazeologizmlar alohida rasmiylashgan, obrazli va koʻchma maʼno ifodalaydigan til birliklaridir¹.

Yana bir hanuzgacha tilshunoslikda bahsli boʻlib kelayotgan muammolardan biri frazeologizmlar tarkibiga kiruvchi ibora va idiomalarning oʻzaro farqli jihatlarini ajratish masalasidir. Bunday muammoning yuzaga kelishiga sabab har ikkala lingvistik vositalarning ham oʻxshash tomonlari borligidir. Masalan, har ikkalasi ham nutqqa tayyor holda kiritiladi, koʻchim va obrazlilik mavjud, imotsional-ekspressivlikni taʼminlaydi. Lekin ular oʻrtasida farqli jihatlar borligi aniq, aks holda ikkalasi ham alohida terminlar bilan nomlanmas edi. Yaqin davrgacha ushbu ikki termin farqlanmas, bir-biridan ajratib koʻrsatilmamas edi. XX asrning 40-yillariga kelib idiomalar haqidagi qarashlar yuzaga kela boshlagan. I.Ermatov va N.Mahkamovning "Tilshunoslik terminlari izohli lugʻati" da idiomalar kengroq izohlangan "Idioma - (yunoncha idioma oʻziga xos ifoda ibora) shaklan mantiqqa toʻgʻri kelmaydigan fikr, voqea, hodisalarning ifodalanishi. Ular maʼlum tilgagina xos boʻlib, boshqa tillarga soʻzma-soʻz tarjima qilib boʻlmaydi. Masalan, amamning buzogʻi, gapning poʻst kallasi, yuragi shuv etib ketdi.² Shuningdek, taniqli tarjimon, rahmatli Gʻ.Salomov oʻzining "Til va tarjima" asarida idiomalar haqida quyidagi mulohazalarni yozgan: Birinchidan, sentaktik jihatdan gap boʻlaklariga boʻlib boʻlmaydi, yaʼni tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi idiomasi tarvuzi-ega, tushdi-kesim, qoʻltigʻidan-toʻldiruvchi tarzida tahlil qilish imkonsiz; Ikkinchidan, idiomalarni boshqa tillardan aniq tarjima qilish mumkin deb quyidagi oʻzbek tiliga rus tilidan tarjima asosida kirib kelgan: "pir gʻalabasi, amerika ochmoq, xitoy devori, gʻalvir bilan suv tashimoq, qizil ip boʻlib

¹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. – бет

² Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlari izohli lugʻati. – Toshkent: Fan, 2013. – B.47

o‘tmoq”¹ kabi idiomalarni misol keltiradi. Uchinchi, idiomalar jamiyatdagi narsa, voqea, hodisalarga nisbatan bog‘liqlik mavjud emas; To‘rtinchi, idiomada hech qanday xalq hikmati yo‘q, faqat ko‘chma ma’noda ishlatiladigan barqaror so‘z birikmasi.

Yuqoridagi izohlardan ibora va idiomalarning farqlari xususida shunday xulosa qilish mumkin:

1) iboralar tarkibidagi har bir so‘z yaxlit holda ko‘chma ma’no hosil qiliyotgan so‘zni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi, masalan, yog‘ tushsa yalagudek iborasi tarkibidagi uchala so‘z ham birgalikda "toza" ma’nosini beryapti, ya’ni shunchalik tozaki, xatto yog‘ tushsa ham yalab olgudek;

2) iboralar asosan kundalik muloqotda ko‘p qo‘llaniladi va eslab qolish oson bo‘lib, fikrni obrazli ifodalaydi: ilonning yog‘ini yalagan-mug‘ombir, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan-yuvosh;

3) iboralar ifodalayotgan ma’no jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi: "qovun tushirmoq" birikmasi qovunni qo‘ldan tushirib yuborish, ehtiyotsizlik qilish holatini ifodalaydi. Ehtiyotsizlik qilish tufayli qovunni tushirib yuborish tabiiyki, kishilarda salbiy imotsiyani yuzaga keltiradi. Mana shu voqelikni obrazli ifoda etish asosida qovun tushirmoq erkin bog‘lamaning "suhbat mavzusiga qovushmaydigan, noo‘rin gap so‘z aytmoq" (O‘TFL) ma’nosi shakllanadi.² Idiomalarda esa aksincha voqea va hodisalarning sodir bo‘lishi imkonsiz, masalan, tuyaning dumi yerga tekkanda, toshbaqa tog‘ga chiqqanda kabi.

4) iboralar doimo ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi, idiomalarni esa bir so‘z bilan ham ifodalash mumkin: tuzladi-gap bilan boplamoq, boplab jazolamoq.

XULOSA

¹ Тил ва таржима.- Ўзбекистан ССР ФАН нашриёти.- Тошкент, 1966. 262-бет

² Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. 89– бет.

Ko‘rinib turganidek frazeologizmlar keng miqyosda o‘rganilib, tadqiq qilinganligiga qaramay uning obyektini belgilashda turli xil farazlar bor. Frazeologizmlar doimo ko‘chimga ega ekanligi hamda obrazlilik uni boshqa birliklardan ajratib turuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Iboralar va idiomalar xususida esa shunday xulosa qilish mumkinki, ular o‘rtasida bir nechta farqlari bor, bu farqlarni ajratish biroz mushkul vazifa bo‘lib kelayotgan bo‘lsada, bu vazifani bajarish ustida ko‘pgina tilshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

REFERENCES

1. Umarxo‘jaev M.E. *Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi.*- Andijon: ADTPI, 2010.-150-betlar.
2. Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. *Ўзбек фразеологиясидан материаллар (биринчи қисм).* Самарқанд, 1976, 12-13-бетлар
3. Маҳкамов Н., Ерматов И. *Тилшunoslik terminlari izohli lug‘ati.*– Toshkent: Fan, 2013.–B.47
4. Маматов А. *Ўзбек тили фразеологияси.* – Тошкент-, 2019. 89– бет.
5. *Тил ва таржима.* - *Узбекистан ССР ФАН нашриёти.* Тошкент, 1966. 264-бет.